



## KICHIK BIZNES RIVOJI – ERTANGI KUN POYDEVORI

**Mardanov Aziz Yusupovich**

*Oriental universiteti “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti dekani muovini. Toshkent, O‘zbekiston.* [yusupovmuhammad54@gmail.com](mailto:yusupovmuhammad54@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss1/a35](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a35)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada kichik biznes taraqqiyoti va moliya munosabatlarini takomillashtirish o‘zaro bog‘liq muammolardandir. Iqtisodiyotning turli mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan keng foydalanishga o‘tishi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham bozor talablari asosida rivojlanishi uchun muhim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari kichik biznes taraqqiyotini rag‘batlantirishning muhim dastaklariga egadir.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish, kichik va xususiy biznesni har tomonlama rivojlantirish, moliya munosabatlari kichik biznes taraqqiyotini rag‘batlantirish.

### **Аннотация**

В данной статье развитие малого бизнеса и улучшение финансовых отношений относятся к числу взаимосвязанных проблем. С переходом экономики на широкое использование различных форм собственности и хозяйственного ведения, развитием частного предпринимательства и малого бизнеса финансовые отношения также получили важный импульс для своего развития на основе требований рынка. В то же время финансовые отношения имеют важные рычаги стимулирования развития малого бизнеса.

**Ключевые слова:** развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, финансирование предприятий малого бизнеса, комплексное развитие малого и частного предпринимательства, финансовые отношения по стимулированию развития малого бизнеса.

### **Abstract**

In this article, the development of small business and the improvement of financial relations are among the interrelated problems. With the transition of the economy to wide use of various forms of property and business management, the development of private entrepreneurship and small business, financial relations also received an important impetus for their development based on market requirements. At the same time, financial relations have important levers to stimulate the development of small business.

**Key words:** development of small business and private entrepreneurship, financing of small business enterprises, comprehensive development of small and private business, financial relations to stimulate the development of small business.

### **Kirish**

Jahonda kichik bizneslar boshqa-boshqa sektorlarda rivojlanishni ko‘rsatadi. Bu sektorlar orasida elektron tijorat, bank xizmatlari, sotib olish-sotish va boshqalar kabi mavjud. Bulardan biri sifatida, masalan, elektron tijorat sektorida biznes tarmog‘ini

rivojlantirish uchun onlayn markazlar yaratish, internet reklamasi va marketingi, foydalanuvchilar bilan elektron pochta, sotsial media yoki mobil qurilmalar orqali aloqa tuzish, taqdimotlarni onlayn tuzish, to'lov sistemalari yordamida biznesni tashkil etish kabi cheklovlardan foydalanish mumkin.

Sotib olish-sotish sektorida biznes tarmog'ini rivojlantirish uchun esa, mahsulot yoki xizmatlarni sotish uchun internet orqali reklama qilish, onlayn sotib olish imkoniyatlarini yaratish, mahsulotlarni sotish uchun mobil qurilmalar orqali tizimli tarzda sotish kabi cheklovlardan foydalanish mumkin.

Bank xizmatlari sektorida biznes tarmog'ini rivojlantirish uchun, onlayn to'lov sistemalari, mobil bank xizmatlari orqali foydalanuvchilarga oquq, maslahat va boshqa xizmatlarni taklif qilish mumkin.

Shuningdek, biznesni rivojlantirish uchun tizimli ma'lumotlarni barcha sektorlardagi foydalanuvchilarga taqdim etish, ko'proq foydalanuvchilarni jalb qilish, aniq mahsulot yo'nalishlariga ega bo'lish muhimdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotda ham muhim o'rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to'lov tushumlari hajmining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog'ining oshishiga asosiy turtki bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning tayanchiga hamda asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

### **Asosiy qism**

Kichik biznes rivoji nafaqat dunyoda balki O'zbekistonda ham yuqori e'tiborga bo'lib kelgan sohalardan biridir. Kichik bizneslar rivojlanishi o'zining afzalliklari bilan birga, umumiy iqtisodiyotga ham o'ta ta'sir qiladi. Bu yo'nalishdagi bir nechta holatlarda, kichik bizneslar aholi turmush darajasining oshishiga, ish joylarinin yaratilishiga va soliq mablag'lari to'plashga xizmat qiladi. Kichik bizneslar rivoji tufayli iqtisodiy rivojlanishga olib keladigan katta o'rinni egallaydi. Kichik bizneslar yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar taqdim etish orqali o'z mijozlarining ehtiyojlari va talablarini yaxshilaydi. Bu esa iqtisodiyotni ham yaxshilashga yordam beradi.


Kichik biznes rivoji erkin iqtisodiyotning eng asosiy mohiyatlaridan biridir. Shunga ko'ra, bu yo'nalishdagi bizneslarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, o'zgartirish va yaxshilash, uning boshqa kamchiliklarini bartaraf etish, inson kapitalini va mamlakat iqtisodiyotini kengaytirish uchun ham muhimdir.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Bu narsa shu bilan bog‘liqki, kichik biznes tizimi ichida mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi maqsadida kichik biznes kelgusi taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan band etishi va o‘rta sinfni shakllantirishi kabi xususiyatlari xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma‘lumki, kichik korxonalar iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-texnika ixtirolarini, aholining talabini qondirish uchun qo‘llashda istiqbollidir. Boshqarish sohasida kichik korxonalarda eng kam xarajat qilinishi bilan birga mulk haqiqiy egasining qo‘lida bo‘lib, undan foydalanish, ko‘paytirish doimo yaxshi natijalarga olib kelgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirishning turli xil manbalarini quyidagi rasm holida tasvirlash mumkin (rasm).



**Rasm. Kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish manbalari<sup>1</sup>**

Shu munosabat bilan kichik va xususiy biznesni har tomonlama rivojlantirish zarur. Ularni tashkil etish, ro‘yxatga olish va moliyalashtirish masalalarida qulay shart-sharoitlar yaratish kerak. Kichik biznes subyektlarining to‘la erkinligini ta‘minlash va ular faoliyatini rag‘batlantirish lozim.

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o‘rinlarini barpo qilishda, bozor o‘zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda.

Qator mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o‘rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu nuqtai-nazardan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kichik biznesni moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini atroflicha o‘rganish

va samarali bo'lgan usullarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish bosh masaladir. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda kichik biznes loyihalarini moliyalashni takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning deyarli barcha soxalarida barpo qilinmoqda va rivojlanib bormoqda. Ana shundan kelib chiqqan holda, respublika hukumati ko'p qirrali iqtisodiyotni shakllantirishni va bunda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka birinchi darajali ahamiyat berishni “strategik vazifa” sifatida belgilab oldi. Chunki, o'lkamizning o'ziga xos xususiyati, rivojlangan qishloq xo'jaligi va xom ashyo bazasi, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada faol rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faol investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan kelib chiqib, quyidagi umumlashgan xulosalarimizni ishlab chiqdik. Ularni qisqacha quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

1. Kichik biznes korxonalarining rivojlanishi iqtisodiyotga bir qancha ijobiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin. Jumladan,

- iste'mol doirasini yangi-yangi talablar bilan to'ldiribgina qolmay, zamonaviy texnologiyani joriy qilgan holda o'z harajatlarini ham to'liq qoplaydi;
- bozorda zarur bo'lgan raqobat maydonini yuzaga keltiradi va buning uchun ular turli shakllarga kira oladi hamda bozor kon'yunkturasiga moslasha oladi.

2. Ko'pchilik iqtisodchi olimlarning qarashlarini tahlil etib va o'z mulohazalarimizdan kelib chiqib, xulosa qilamizki, Kichik biznes korxonalari quyidagi funksiyalarni bajaradi;

- aholining moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini jalb qilish;
- raqobat muhitini shakllanishiga ko'maklashish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining muxim yo'nalishlari bo'yicha katta yangiliklar yaratish;
- aholi bandligini ta'minlash.
- talabni yangi qirralarini paydo bo'lishiga imkoniyat yaratish.

3. Kichik korxonalarining hammasi ham faoliyatini davom ettirmasada, lekin, asosan ular xujalikning hamma shakllariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun aytish mumkinki, Kichik biznes korxonalari bozor muhitini yanada takomillashtirishga, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlarining o'zgartirishga, O'zbekistondagi hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan muammolarni hal qilishga yangicha imkoniyatlar yarata oladi.

4. Umumiy iqtisodiyot kabi, kichik biznesni rivojlanishi ham tsiklik xarakterga egadir. Kichik biznes korxonalari quyidagi xollarda rivojlanadi va taraqqiy etadi:

- bozor kon'yunkturasi erkin faoliyat yurita olganda;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi normallashtirilganda;
- bir iqtisodiy tuzumdan ikkinchi iqtisodiy tuzumga o'tganda.
- iqtisodiyotda talab massasi va ishsizlar hajmi ortganda.

5. Kichik biznes korxonalarining faoliyatini kengaytirishda, ularni boshqarishda, tartibga solishda moliya-kredit mexanizmining ta'siri katta bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarning takomillashuvi iqtisodiyotni rivojlanishiga, taraqqiy etishiga olib keladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari investitsion loyihalarini moliyalashtirishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini ko'paytirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirishga xorijiy kredit liniyalaridan mablag‘lar jalb qilishni kengaytirish;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalar faoliyati barqarorligini reyting usulida baholashni yanada takomillashtirish zarur;
- kichik biznes subyektlari faoliyatidagi risklarni sug‘urtalash amaliyotini takomillashtirish maqsadida kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik riskini sug‘urtalovchi davlat sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitalini davlat mablag‘lari hisobidan oshirish va ushbu mablag‘larni sug‘urta qoplash summalari sifatida maqsadli ishlatilishini ta‘minlash zarur;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – kelajakda ishlab chiqarish va eksport tarkibida harakatchan, tez o‘zgarish qobiliyatiga ega bo‘lgan tarmoq sifatida iqtisodiyotda etakchi o‘rin tutishga erishish kerak;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sifatli hamda zamonaviy texnik baza negiziga ega bo‘lishi kerak. Bozor infratuzilmasini maxsus markazlar, lizing kompaniyalari tarmog‘ini har tomonlama servis xizmati yo‘li bilan rivojlanishi lozim.
- jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo‘naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag‘larni eng avvalo tarkibiy qayta o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo‘naltirishga alohida e‘tibor qaratish;
- xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo‘sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e‘tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog‘liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratish;
- kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta‘minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;
- kichik korxonalarni tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;
- kichik biznes subyektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz ta‘minoti, suv va issiqlik ta‘minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo‘yicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish va yo‘naltirish;
- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashish.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholini ish bilan ta’minlash muammosini hal etish, qishloqda sanoat va xizmat ko’rsatish sohaslarini rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish bilan bevosita bog’liq.

### **Xulosa va takliflar**

Bugun sanoatni, xizmat ko’rsatish sohaslarini qishloq joylariga olib kelish, xususan, mahsulotlarni qayta ishlaydigan kichik korxonalarni qishloq zaminiga joylashtirishni mahalliy hokimiyatlar, tadbirkor ishbiarmonlar, turli xil mulk egalari oldiga asosiy vazifa qilib qo’yilgani tasodifiy emas. Bugungacha xizmat ko’rsatish tarmoqlari asosan shahar va tumanlar markazlarida ko’proq joylashgan bo’lsa, endi ularni posyolkalarda, qishloqlarda, hattoki eng olis ovullarda ham tashkil etish zarurati tobora ortmoqda. Zero, xizmat ko’rsatish tarmoqlari darajasi mamlakatning taraqqiy etayotganligini, jamiyatni rivojlanayotganligini ko’rsatuvchi muhim mezonidir.

Kichik biznes rivoji sohasida ishlarni amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalar foydali bo’ladi:

Qo’shma korxonalar bilan hamkorlik qilish: kichik bizneslar o’zlarining mahsulotlarini sotish, tashish va tarqatish bo’yicha qo’shma korxonalar bilan hamkorlik qilishadi. Bu, ularning daromadlarini yetarlicha oshirish va yangi bozorlar yaratishga imkon beradi.

Boshqa bizneslar bilan hamkorlik qilish: boshqa bizneslar bilan hamkorlik qilish, xususan katta korxonalar bilan, kichik bizneslarga yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni qabul qilish: kichik bizneslar rivojlanishda innovatsiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Yangi texnologiyalarni qabul qilish, mahsulot va xizmatlarni yaxshilash uchun yangiliklar qo’shish va boshqa innovatsiyalar kichik bizneslarni rivojlantirishga yordam beradi.

Marketing va reklama: kichik bizneslarni o’zlarining mahsulotlarini sotish uchun doimiy xarakterga ega bo’lishi lozim. Bu esa marketing va reklama faoliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Rivojlanishni ta’minlash uchun moliyaviy resurslarni qo’llab-quvvatlash: kichik bizneslar rivojlanishi uchun moliyaviy resurslarga muhtojdir. Moliyaviy resurslarni ta’minlash, kreditlar va qo’shimcha investitsiyalar kichik bizneslarni rivojlantirishga imkon beradi.

O’zlashtirish va taraqqiyot: kichik bizneslar rivojlanish uchun o’zlashtirish va taraqqiyotga muhtojdir. Yangi mahsulotlar va xizmatlarni tarqatish, xizmat sifatini yaxshilash, sotish va tashish jarayonlarini o’zlashtirish kichik bizneslarni o’sishga olib keladi.

Yuqoridagi tavsiyalar kichik bizneslarni rivojlantirishga yordam beradi va ularning o’zlarini rivojlantirish hamda mustahkam qilish uchun muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son.
2. O’zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son.
3. O’zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
4. O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi 913-XII-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-657-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5186044>
6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-742-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-5801127>
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari Yunusobod tumani kengashining 2022-yil 5-yanvardagi “Yunusobod tumanining 2022-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi” II-57-1-14-206-K/22-sonli qarori
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-y. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
11. Qobulov X.A. Mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini mustahkamlash mexanizmiga kreativ yondashuv // j. Moliya. –1/2021-son, 2020. 5-16-b.
12. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. «Студенческий вестник»: научный журнал. – № 20(165). Часть 14. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. – с. 74-76
13. Shernayev A.A, Qalandarov Z.I. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari «Интернаука»: научный журнал - № 20(196). Часть 7. Москва, изд. «Интернаука», 2021. - с. 58-60
14. SHERNAEV A.A. PRINCIPLES AND METHODS OF ORGANIZATION OF THE INTERNAL TAX CONTROL SYSTEM IN JOINT STOCK COMPANY. International Journal of Economics, Business and Management Studies - ISSN:2347-4378 SJIF Impact Factor(2021) :7.473, Journal DOI: 10.36713/epra1013 (Volume: 8, Issue: 4, April 2021), Pages: 43-53.
15. Shernaev A.A. Aktsiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish: xususiyatlari va uslubiyoti masalalari. "Science and Education" Scientific Journal. March 2021 / Volume 2 Issue 3, 454-469-p.
16. SHERNAEV A.A. TAX ANALYSIS IN MICROLEVEL TAX PLANNING. ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. FEBRUARY, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p.